

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 262 (1323), 2024-yil 26-dekabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



KO‘P QIRRALI SHERIKLIKNING YANGI YO‘NALISHLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-dekabr kuni Sankt-Peterburg shahrida MDH davlatlari rahbarlarining norasmiy uchrashuvida ishtirok etdi.



Tadbirda Rossiya Prezidenti Vladimir Putin, Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdi. Uchrashuvda 2024-yildagi birgalikda olib borilgan ishlarning asosiy yakunlari sarhisob qilindi va ko‘p tomonlama hamkorlikning kelgusi yilga mo‘ljallangan ustuvor vazifalari ko‘rib chiqildi.

Mintaqa ichida savdo va kooperatsiyani, eng avvalo, o‘zaro savdodagi to‘siqlarni bartaraf etish orqali kengaytirish bo‘yicha qo‘shma choratadbirlarni ishlab chiqish muhimligi qayd etildi.

Ko‘p qirrali sheriklikni yangi yo‘nalishlarda rivojlantirish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi. Muhandislik maktablarini tashkil etish, internet texnologiyalari, katta ma‘lumotlar industriyasi, kreativ iqtisodiyot, “yashil” energetika va tinch atom sohasini rivojlantirish, raqamli yechimlarni joriy etish shular jumlasidan.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik hamda umumiy tahdid va xatarlarga qarshi kurashda MDH doirasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirish borasidagi dolzarb masalalar ham muhokama qilindi.

O‘ZA

Munosabat

SOHADAGI ASOSIY VAZIFA – BIRLAMCHI BO‘G‘INDA TIBBIYOT SIFATINI OSHIRISH

Joriy yil 24-dekabr kuni Prezidentimiz huzurida sog‘liqni saqlash sohasida qilingan ishlar va 2025-yilga mo‘ljallangan ustuvor vazifalar ko‘rib chiqildi.

Inson hayoti, salomatligini asrash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Keyingi yillarda sog‘liqni saqlash tizimi mutlaqo yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilindi. Buning uchun katta mablag‘, kuch va resurslar safarbar etilmoqda. 2024-yilda sohaga 36 trillion so‘m ajratilgan, bu o‘tgan yildagidan 25 foiz ko‘pdir. Sohaga yo‘naltirilayotgan byudjet mablag‘lari yil sayin ko‘payib borayotgani zamirida aholi salomatligini asrash va mustahkamlash, umr davomiyligini oshirish maqsadi mujassam. Bugun xalqqa yanada yaqinlashtirilayotgan tizimda bo‘layotgan o‘zgarishlar yoshu keksa hayotida o‘z aksini topmoqda. Zero, har bir insonning malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi, sifatli tibbiy xizmatning har bir xonadongacha kirib borishi uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda.

Sohaning yuragi bo‘lgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida kasalliklar oqibati bilan emas, ko‘proq sabablari bilan kurashiladigan yangicha mexanizmlar joriy etilayotir. O‘tgan vaqt davomida birlamchi bo‘g‘inda 18 mingdan ziyod tibbiy brigada tashkil qilingani fikrimizga dalil bo‘la oladi. Bu xalqni rozi qilish, malakali tibbiy xizmatni aholiga yaqinlashtirish, tibbiy yordam ko‘rsatishni mahallabay, manzilli va maqsadli ta‘minlashga xizmat qilayotir.

Birlamchi bo‘g‘inda 6 turdagi skrining tekshiruvi yo‘lga qo‘yilgani natijasida 106 ming kishida qandli diabet, 194 ming nafarida yurak-qon tomir, 2 mingdan ziyod ayolda saraton, mingga yaqin bolada onkogematologik kasallik erta bosqichda aniqlandi.

Davomi 2-betda

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

“YASHIL” ENERGETIKA: RIVOJLANISHNING YANGI DRAYVER TARMOG‘I

Prezidentimiz 13-dekabr kuni yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarini qurishga bag‘ishlangan tantanali marosimda keyingi sakkiz yilda O‘zbekiston “yashil” energetika ishlab chiqarish va undan foydalanishda ko‘zga ko‘rinarli yutuqlarga erishganini alohida ta‘kidladi. Bu sohada bugunga kelib 3,5 ming megavattli yoki 10 milliard kilovatt-soatga teng 16 ta yirik quyosh va shamol elektr quvvati ishga tushirilgani, shuning hisobiga 2024-yilda “yashil” energiya ulushi 16 foizdan oshirilgani e‘tiborga molikdir.

Davlatimiz rahbari qiymati 3,7 milliard dollarlik 18 ta yangi quvvat ishga tushirilayotgani va navbatdagi 6 ta loyiha qurilishiga start berilayotganini energetika sohasidagi tarixiy voqea deb atadi.

Buxoro, Navoiy, Namangan va Toshkent viloyatlarida salkam 2,3 ming megavatt quvvatga ega 5 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi hamda 5 ta yuqori kuchlanishli podstansiya ishga

tushirilishi, Andijon va Farg‘onada 300 megavattli yirik saqlash tizimi barpo etilgani, shuningdek, Qashqadaryoda 400 megavattli elektr stansiyasi, Toshkent shahrida zamonaviy kogeneratsiya qurilmasi, Andijon, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 4 ta kichik GES foydalanishga topshirilishi sohadagi izchil islohotlarning yorqin samarasidir.

Davomi 2-betda

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI



SHAFFOF MEHRNING MUSAFFO BULOQLARI

1

Mehr — gul, mehr — xazina, mehrli odam esa eng sevimli odam, deyiladi muborak kitoblarda. Shohdir, gadodir, mehmi qo‘msamaydigan, mehrga beehiyoy bandai mo‘min bo‘lmasa kerak bu yorug‘ olamda. Buloq suvidek musaffo mehr qalblarni shodlikka burkaydi, yuraklarni go‘zallik va erkinlikka, ahillik va samimiylikka, halollik va botirlikka da‘vat etadi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo‘lgan ayrim kishilarda esa toza mehr va samimiy e‘tiborga sog‘inch va tashnalik, ayniqsa, kuchli bo‘ladi. Shu bois, albatta, o‘zini, millatini hurmat qilgan mamlakatlarda ehtiyojmand insonlarga alohida mehr-muhabbat ko‘rsatiladi, g‘amxo‘rlik qilinadi, imtiyozlar yaratiladi.

Biz, afsuski, uzoq yillar shu tugal haqiqatga e‘tibor bermadik, muhtojlar mehrimizga in-tiq, zor bo‘lib umr guzaronlik qilishga majbur bo‘ldi. Yalang‘ochlik odamlarni uyga kirgizdi, ochlik ko‘cha kezdirdi. Nogironlar qatoriga oila tebratishga qurbi kelmaydigan kambag‘al-lar qo‘shildi, ishsiz ko‘chada qolgan yoshlar

qo‘shildi, qizlar qo‘shildi, ayollar qo‘shildi. Avval ming, keyin millionlarga aylanib ketdi ularning safi. Tumanli turmush tashvishlari xo-rijga yetaklab ketdi ko‘plarni, gulday qizlarimiz allakimlarning bo‘sa‘asini supurdi, kirini yu-vidi, qozon-tovog‘ini artdi, kamsitildi, xo‘rlandi.

2016-yilning adog‘iga dovur zim-ziyotun misoli dillarni ezib-ezg‘ilab yotgan bu ayan-chli manzara 2017-yilning boshidan e‘tiboran sekin-asta o‘zgarib boshladi. Shavkat Mirziyoyevning iqtidoriga kelishi yorug‘lik ulashdi, nur ulashdi, umid uyg‘otdi umidsiz qalblarda. Prezident birinchi qadamlarini o‘zbek xalqi uchun suv va havo kabi zarur masala — aholini ijtimoiy himoya qilish muammosiga qarattirdi. Buning uchun, birinchi navbatda, ishsizlikni kamaytirish lozim edi. Ishsizlikni kamaytirish uchun ish o‘rni yaratish, ish o‘rni yaratish uchun tomlari teshilib, uskunalari zanglab ketgan sanoat korxonalarini o‘rinda zamonaviylarini bunyod etish, bunyod etish uchun mamlakatga xorijdan investitsiya kiritish, investitsiya kiritish uchun chet ellik tadbirkorlar, jahon miqyosidagi e‘tiborli bank va moliya tizimlari ishonchini qozonish...

Davomi 3-betda

Tuhfa

QO‘NG‘IROT TEMIR YO‘L VOKZALI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI



2

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

“YASHIL” ENERGETIKA

RIVOJLANISHNING YANGI DRAYVER TARMOG'I



Baxtiyor PO'LATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda Farg'ona, Samarqand, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida qiymati 3,5 milliard dollar bo'lgan 2,5 ming megavattli 6 ta elektr quvvati qurilishi boshlanmoqda.

Ishga tushayotgan quvvatlar va yangi loyihalar orqali kelgusi yillarda qo'shimcha 9,5 milliard kilovatt-soat elektr ishlab chiqarilib, 2,5 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi, 4,6 million tonna zararli gazlar chiqarilishining oldi olinadi. Eng muhimi, 4 milliondan ziyod xonadon uzluksiz toza energiya bilan ta'minlanadi.

“Yashil” energetika nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda, balki iqlim o'zgarishini yumshatish, ekologik muammolarning oldini olishda ham muhim omildir. Yoqilg'ining organik turlaridan

foydalanuvchi elektr va issiqlik stansiyalari hamda ichki yonuv dvigatellaridan chiqayotgan zararli gazlardan atrof-muhit ifloslanayotgani dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solmoqda. O'zbekiston Parij bitimi doirasida 2030-yilgacha zararli gazlar emissiyasini 35 foiz kamaytirish bo'yicha majburiyat olgan. Prezident bu majburiyatni 2050-yilgacha yanada kengaytirishga tayyorligini bildirdi.

Aytish joizki, uglevodorod xomashyosi zaxiralari kamayishi munosabati bilan dunyoda muqobil energiya manbalari va yangi energiya tashuvchilarini topishga qaratilgan izlanishlar jadal bilan davom etmoqda. O'zbekiston bu borada katta salohiyatga ega: bir yilda quyoshli kunlar 300 kundan ortiq, shamol esuvchi hududlar, mikro GESlar qurish uchun tog' daryolari mavjud bo'lib, “yashil” energetika sohasi rivojida dadil qadamlar tashlanmoqda.

Mamlakatimizda 2030-yilga qadar yana 19 ming megavatt “yashil quvvat”larni barpo etib, qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Xususan, 2025-yilda 3,4 ming megavattli 18 ta quyosh va shamol stansiyasi hamda 1,8 ming megavattli saqlash tizimlari ishga tushiriladi. Buning natijasida kelgusi yili “yashil” energiya ishlab chiqarish hajmlari 12 milliard kilovatt-soatga yetadi. Bu 5 million xonadonning bir yillik iste'moliga teng va atmosfera 6,5 million tonna zararli gazlar chiqarishning oldi olinadi deganidir. Kelgusi 2-yilda xususiy tadbirkorlar bilan birga 2 mingdan ortiq kichik va mikro GES qurish bo'yicha katta dastur amalga oshiriladi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'yar ekan, qayta tiklanuvchi energetika manbalaridan samarali foydalanish maqsad qilingi. Tarmoqda xususiy sektorga keng yo'l ochilgani xorijiy investorlarning qiziqishini yanada oshirdi. Pirovardida o'tgan besh yilda energetika sohasiga

qariyb 20 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilindi. Avval to'liq davlat tasarrufida bo'lgan bu tizimda energiya ishlab chiqaruvchi 24 ta mustaqil subyektlar paydo bo'ldi. O'tgan qisqa davrda ekologik toza energiya quvvatlarini yiliga 2-3 karra ko'paytirishga erishildi.

Kelgusi yili jami 84 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi nazarda tutilgan bo'lib, bu 2016-yildagiga nisbatan 25 milliard kilovatt-soat ko'p deganidir.

Mamlakatimizda 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e'lon qilinishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Yashil” energetika yo'nalishida mintaqaviy va xalqaro hamkorlik kengaytiriladi. Bu borada birinchi amaliy qadam sifatida COP29 doirasida Qozog'iston, Ozarbayjon va saudiyalik hamkorlar bilan “yashil” energiyani Yevropa mintaqasiga eksport qilish bo'yicha ilk bitim imzolandi. Mintaqaviy energiya tizimi barqarorligini ta'minlash maqsadida qo'shni davlatlar bilan yagona platforma ishga tushirildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturida sanoatda energiyetejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali energiya sarfini 50 foiz qisqartirish, 2030-yilgacha energiya balansida ekologik toza va qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini kamida ikki karra oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan Yashil energetika strategiyasini ishlab chiqish va qabul qilishga doir tashabbuslar ilgari surilgan.

Bundan tashqari, yirik shaharlar atrofida chiqindi poligonlari bazasida xalqaro standartlarga mos keluvchi elektr stansiyalar qurish, biokomir ishlab chiqarish va chiqindilarning energiya potensialidan unumli foydalanish, elektr ta'minoti uzilishlariga chek qo'yish va aholini arzon energiya bilan ta'minlash chora-tadbirlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Yurtimizga vodorod va biogaz kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalari uchun texnologiyalarni olib kirishda bojxona imtiyozlarini joriy etish masalasi ham dolzarb.

Mamlakatimiz umumiy energetik balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish ishlab chiqarish majmualari hamda aholini barqaror energiya bilan ta'minlashga, hayot farovonligini yuksaltirish, barcha sohalar ravnaqiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e'lon qilinishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Yashil” energetika yo'nalishida mintaqaviy va xalqaro hamkorlik kengaytiriladi. Bu borada birinchi amaliy qadam sifatida COP29 doirasida Qozog'iston, Ozarbayjon va saudiyalik hamkorlar bilan “yashil” energiyani Yevropa mintaqasiga eksport qilish bo'yicha ilk bitim imzolandi. Mintaqaviy energiya tizimi barqarorligini ta'minlash maqsadida qo'shni davlatlar bilan yagona platforma ishga tushirildi.

Tuhfa

Qo'ng'irotdik Baxtiyov Jiyonboyev temir yo'l sohasida 37 yil mehnat qilib, bugungi kunda nafaqada dam olmoqda. Yangidan qad rostlagan Qo'ng'irotdik temir yo'l vokzali binosini hamkasblari bilan tomosha qilib, zamonaviy uslubda qad ko'targan inshootga uzoq tikilib qoldi. O'tgan davrlarini esladi. Ko'rimisiz, eski vokzalda ishlardi. Endi butkul boshqacha manzara. Haqiqatan, foydalanishga topshirilgan yangi inshoot Qo'ng'irotdik tumanidagi qurilish va obodonlashtirish ishlarining yaqqol namunasidir.

— Qo'ng'irotdik temir yo'l vokzali o'tgan asming o'talarida, ya'ni 1955-yilda qurilgan edi. Vokzalda yo'lovchilarga sifatli servis xizmat ko'rsatish imkoniyati mavjud emasdi, — deydi Qo'ng'irotdik temir yo'l vokzali boshlig'i Kamolotdin Akimov. — Eskisi o'miga qurilgan mazkur yangi va zamonaviy majmuaning umumiy foydalanishdagi maydoni 820 metr kvadrati tashkil etadi.

Vokzal binosining birinchi qavatida xizmat xonalardan tashqari kutubxona, deputatlar, ona va bola, tez tibbiy yordam ko'rsatish xonalari, sanitariya nazorati, bufet, savdo shoxbanchasi joylashgan. Vokzalning ikkinchi qavatida esa barcha qulayliklarga ega, zamonaviy anjom-uskunalar bilan jihozlangan mehmonxonalar va oshxonalar mavjud. Mehmonxonalar jami 7 xonadan iborat bo'lib, 17 kishiga xizmat ko'rsatadi.

— Temir yo'l sohasida 28 yildan buyon mehnat qilaman. Lekin bugungidek sharoit oldin umuman bo'lmagan, — deydi Qo'ng'irotdik temir yo'l vokzali ishchisi Ashirboy Seyitjonov. — Biz asosan, Qo'ng'irotdik — Toshkent, Qo'ng'irotdik — Andijon, Volgograd — Toshkent, Mang'istov — Nukus, shuningdek, Dushanbe — Volgograd, Xo'jakent — Volgograd yo'nalishidagi yo'lovchi poyezdlarga xizmat ko'rsatamiz.

Qisqa qilib aytganda, Qo'ng'irotdik temir yo'l vokzali foydalanishga topshirilishi Yangi yil bayrami arafasida qoraqalpog'istonlik yurtdoshlarimizga, qalaversa, ushbu diyorga tashrif buyuradigan mehmonlarga ajoyib sovg'a bo'ldi.

Minajatin QUTLIMURATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Prezidentimiz 2023-yil 30-mart kuni Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif chog'ida “O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyatiga Qo'ng'irotdik temir yo'l vokzali binosini yangidan qurish bo'yicha topshiriq bergan edi.

Qisqa vaqt mobaynida “Toshtemiryo'liyo” MCHJ mutaxassislari bilan birgalikda zamonaviy shaharsozlik va arxitektura talablariga mos Qo'ng'irotdik temir yo'l vokzali binosi loyihasi ishlab chiqildi va “O'zbekiston temir yo'llari” AJ tomonidan muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarildi.

Jamiyatning o'z mablag'lari hisobidan 12,5 milliard so'm sarflanib buniyod qilingan ushbu zamonaviy temir yo'l vokzali yangi yil arafasida foydalanishga topshirildi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tantanali marosimda so'zga chiqqanlar aholiga ko'rsatilayotgan transport xizmatlari sifatini yanada yaxshilash, temir yo'l tizimida yo'lovchilarga hamda tadbirkorlarga qulayliklar yaratish maqsadida qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash borasida samarali ishlanayotganini alohida ta'kidladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Munosabat

SOHADAGI ASOSIY VAZIFA – BIRLAMCHI BO'G'INDA TIBBIYOT SIFATINI OSHIRISH

Boshlanishi 1-betda

— Kasalliklarni erta aniqlash borasidagi ishlar natijasida ko'krak bezi saratonini aniqlash 28 foiz, bachadon bo'yni saratonini aniqlash 10,5 foiz oshdi, — deydi sog'liqni saqlash vaziri Asilbek Xudoyorov. — Eng ko'p tarqalgan kasalliklarga vaqtda tashxis qo'yish va davolashga ustuvor yo'nalish sifatida qarayapmiz. Dunyo tajribasi asosida kasalliklarga erta tashxis qo'yish va sifatli davolash uchun 43 ta yo'nalish bo'yicha 191 ta klinik protokol xalqaro andazalar asosida yangidan ishlab chiqildi. Shundan 11 tasi eng ko'p tarqalgan kasalliklar bo'lib, bu protokollar aynan birlamchi bo'g'inga ishlab chiqarilgan.

Xalqaro tajribadan ma'lumki, kasalliklarning qariyb 80 foizini birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida erta bosqichlarda aniqlash va davolash mumkin. Kasallikka erta tashxis qo'yilib, o'z vaqtida davolash choralari ko'rilishi insonning yashash huquqini ta'minlash, asoratlar tufayli yuzaga keladigan nogironlik yoki o'lim holatlarining oldi olinishiga xizmat qiladi. Bunda yangicha model asosida ishlab chiqarilgan tibbiyot brigadalarining o'rni alohida.

Tibbiyot brigadalarining har biriga 2 ming nafardan aholi sog'lig'i, taqdiri ishonib topshirilgan. Ular bemorlarga tashxis qo'yish va davolash bilan birga shug'ullanmaydi, balki asosiy vazifasi kasalliklarning oldini olish, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish hamda targ'ib qilishdan iborat. Buning uchun tibbiy brigada tegishli ko'rik va skrining tekshiruvlari orqali o'ziga birlashtirilgan aholi vakilining qaysi biri sog'lom, kimlarda xavf omillari bor, hali bemor emas-u, ammo sog'lom turmush tarziga rioya qilmaydi yoki xastalikka genetik moyilligi mavjudligini o'rganmoqda. Sabablar tahlil qilinib, kasallikning oldini olish, surunkali kasalligi bor bemorlar salomatligi tizimli nazorat qilinib, tibbiy ko'rsatma bo'lganida ambulator yoki tuman, viloyat, hatto respublika darajasida davolashni

Aholi roziligiga erishish, salomatligini muhofaza qilish borasidagi bu xayrli ishlar davom ettiriladi. 2025-yilda sog'liqni saqlash sohasiga 41 trillion so'm ajratilishi ko'zda tutilgan. Bu mablag' hisobidan yangi shifoxonalar tashkil etiladi va zamonaviy jihozlanadi. Mavjud quvvatlarni va tibbiy ko'rik qamrovini kengaytirish rejalashtirilgan.


— Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida tajribasiz tarixida mahalla tibbiyot punktlari, oilaviy shifokor punkti va oilaviy poliklinikalar bazasida “Oila salomatligi” markazlarini tashkil qilmoqchimiz, — deydi sog'liqni saqlash vaziri Asilbek Xudoyorov. — Bu markazlar to'g'ridan to'g'ri birlashtirilgan aholi o'rtasida profilaktik tadbirlar o'tkazish, ularni sog'lom turmush tarziga targ'ib qilish, xavfli infeksiyalarga emlash jarayoni, homiladorlarni nazoratga olish, keksalarimizga vaqtda sifatli yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Davlatimiz rahbari bu sohadagi asosiy vazifa birlamchi bo'g'inda tibbiyot sifatini oshirish ekanini ta'kidladi. Buning uchun vazirlik vertikalini hududlarda to'g'ri ishlatish, ayniqsa, chekka va og'ir tumanlarga e'tiborni kuchaytirish vazifasi qo'yildi.

Sohadagi islohotlarni chuqurlashtirish, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlari sifatini tubdan yaxshilashda xalqaro hamkorlikning o'rni alohida. Bu aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlari sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi. Shu maqsadda xorijlik ekspertlar yurtimiz vakillari bilan hamkorlikda barcha bo'g'indagi tibbiyot muassasalarida o'rganishlar olib bormoqda.

— Turkiyadan kelgan mutaxassislar bilan birga hududlarda oilaviy poliklinika, oilaviy shifokorlik punkti, tuman va viloyat shifoxonalarida o'rganish va tahlillar o'tkazilmoqda, — deydi “Sog'liqni saqlash loyihalari markazi” loyiha ofisi

Aholi roziligiga erishish, salomatligini muhofaza qilish borasidagi bu xayrli ishlar davom ettiriladi. 2025-yilda sog'liqni saqlash sohasiga 41 trillion so'm ajratilishi ko'zda tutilgan. Bu mablag' hisobidan yangi shifoxonalar tashkil etiladi va zamonaviy jihozlanadi. Mavjud quvvatlarni va tibbiy ko'rik qamrovini kengaytirish rejalashtirilgan.



tashkilotlar choralari ko'rilayotir. Tibbiy brigadalar uyda yotib qolgan nogironlarga bo'lgan shaxslar, o'zgarlar parvarishiga muhtojlar, homilador va yosh bolalar ayollar salomatligidan xabardor bo'lib, ularning hayot kechirishi uchun tibbiy ko'mak ko'rsatmoqda.

— Avvallari har ikki ming aholiga bir shifokor, ikki hamshira to'g'ri kelgan, — deydi Olmazor tumani tibbiyot birlashmasi rahbari Aziz Nizomov. — Oxirgi yillarda tibbiy brigada tarkibida ikki ming aholiga bir oilaviy shifokor, bir amaliyot hamshirasi, ikki patronaj hamshirasi va doya birlashtirildi. Ular oilalarga kirib bormoqda. Har birining alohida vazifasi bor. Shifokorlar ko'proq vaqti bemorga ajratilishi uchun u bajarayotgan funksiyalarining ko'pi amaliyot hamshirasiga yuklatilgani aholiga malakali va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish sifati oshishiga sabab bo'lmoqda.

Kasalliklar erta aniqlanayapti. Asoratlariga yo'l qo'yilmayapti. Tizimdagi islohotlar har bir xonadonga kirib borishiga harakat qilinmoqda. Ona va bola salomatligiga alohida e'tibor qaratilayotir.

direktori Eldor Odilov. — Bugungi kungacha 6 ta hududda birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini takomillashtirish, tibbiy sug'urta tizimini joriy etish va tizimni raqamlashtirish, shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni samaradorligini oshirish, tibbiy xizmatlarni rejalashtirish, farmatsevtikani rivojlantirish va dori-darmon ta'minoti, tibbiy asbob-uskunalar samaradorligini oshirish, shoshilinch va tez tibbiy yordamini rivojlantirish bo'yicha o'rganishlar olib borildi. Yanvar oyidan boshlab bu ishlar boshqa hududlarda ham amalga oshiriladi. Bugungi kunda o'rganish natijalari asosida ekspertlarning dastlabki fikrlari shakllangan. Ekspertlarning tahlil, taklif va tavsiyalari umumlashtirilib, sog'liqni saqlash tizimining bosqichma-bosqich islohotiga oid qisqa, o'rta va uzoq muddatli “yo'l xaritalari” ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

BUYUK O'ZBEK YO'LI

Ko'ngildagi bitiklar

Ne tongkim, bizga — zamondoshlarimizga tarixiy evrilishlar, ulkan islohot va bunyodkorliklarga guvoh bo'lishdek farahbaxsh saodat nasib etib turibdi. O'tib borayotgan yil ham har sohada xalqimiz erishgan va erishayotgan ulkan muvaffaqiyatlari, yutuq hamida samaralari bilan qalbimizga muhrlanib ulgurdi. Bugun yangi 2025-yilni munosib natijalar bilan kutib olishga hozirlik avjida.

SAN'ATIMIZNING SHONI VA SHUHRATI BO'QIY


mamlakatimiz masalaning nazariy mohiyatiga ham katta e'tibor qaratayotganidan dalolat.

Konferensiya ishida bevosita ishtirok etib, uning yakunlari bo'yicha Xitoy, Fransiya, Rossiya, Germaniya, Gambiya, O'mon va Iordaniya oliy o'quv yurtlari va xalqaro tadqiqot markazlari bilan 12 ta hamkorlik shartnomasi imzolangan, bu esa yurtimiz musiqa san'ati imkoniyatlarini kengaytirishini o'ylab, san'atimiz istiqbolidan ko'nglim tasmin topdi.

Joriy yilda ikkinchi xalqaro maqom san'ati anjumaniga seriyor tog'lar, yam-yashil o'monlar, xalqparvar va olijanob insonlar yurti bo'lmish betakor Zomin zaminini mezonlik qildi. Anjuman 2018-yilda ko'hna Shahrisabzda o'tkazilgan birinchi Xalqaro maqom san'ati festivalining davomi bo'lib, pandemiya tufayli vujudga kelgan olti yillik tanaffusdan so'ng barchamizni yangicha ruh va shukuh bilan yana atrofiga jamladi.

Uning tantanali ochilish marosimida Prezidentimiz aytgan mana bu fikrlar ushbu san'at turining ahamiyati va mazmun-mohiyatini to'liq ifoda etadi: **“Bizning qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimizning ramzi bo'lgan maqom san'ati teran falsafiy ildizlari, betakor badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Maqom — umumbashariy tuyg'ularni avj pardalarda tarannum etadigan nodir san'at turi sifatida ham biz uchun g'oyat qadrlirdir.”**

Oramizda mumtoz musiqa san'ati gultoji bo'lgan betakor maqomlarimiz UNESCOning Insoniyat nomdidi madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan va bu uni butun dunyoda keng targ'ib qilish va ommalashtirishga munosib hissa qo'shayotganidan quvonmaydigan yurdoshlarimiz topilmasi kerak. Aytaversam, ayni paytda kishini xursand qiladigan, meni to'qlantirayotgan jihatlar juda ko'p. Shulardan bittasi bugun maqom san'ati mamlakatimiz



Munajat YO'LCHIYEVA, O'zbekiston xalq artisti, senator, O'zbekiston Qahramoni

Vaqt uchqur, bejilov. Taraqqiyot asri, deb nom olgan XXI asrning I choragi poyoni ham ko'rinib qoldi. Yaqin tarixda milliy mafkura qudratini to'liq anglashimiz uchun uzoq yillar imkoniyat ham, sharoit ham bo'lmadi. Ne bo'lganda ham xalqimiz irodasi bukilindi. Ba'zan chuqur o'lgina tolamani va xursand bo'laman. Negaki birdamlik, barhayot kuch va salohiyatni namoyon etuvchi milliy g'oyalimiz balandparvoz shiorlar, baland hayqiriqlar soyasidan chiqdi. Bugun milliy birlik, birdamlik bilan yangi O'zbekistonni qurayotgan odamlarimizning tafakkuri ham, mafkurasi ham yangicha ziyofa kasb etdi. Barcha sohalar qatori men o'zim mansub



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

bo'lgan madaniyat va san'atni rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Bu jarayonda “Sharq taronalari”, Xalqaro baxshichilik san'ati, “Lazgi”, Xalq hunarmandchiligi festivali singari nufuzli anjumanlar, madaniyat kunlari, tasviriy va amaliy san'at ko'rgazmalari hamda boshqa muhim tadbirlarni o'tkazish bo'yicha yillik ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda bunday anjumanlar ko'paydi. Bu qaysidir ma'noda O'zbekistonning jahon ahlini tinchlik-totuvlikka, qardoshlik va ahillikka chaqiradigan e'zgu da'vati hamdir.

Hech shubhasiz, ular orasida mamlakatimizda san'at ravnaqini yangi bosqichga olib chiqish, iste'dodli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bu borada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha ko'rilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasi o'laroq “Sharq taronalari” va mumtoz musiqa san'atining noyob durdonasi bo'lgan maqomlarga bag'ishlangan xalqaro festivallar beqiyos o'rin tutadi.

Mohiyatiga ko'ra, “Sharq taronalari” bugun jahon taronalari festivaliga aylanib ulgurdi. Buni Prezidentimiz ham joriy yil 26-avgust kuni o'n uchinchi xalqaro musiqa festivalining tantanali ochilish marosimidagi nutqida alohida ta'kidladi. Festivalda UNESCO, TURKSOY, Turkiya madaniyat va meros fondi hamda boshqa tashkilotlar, 80 ga yaqin davlatdan 400 nafardan ziyod san'atkor va olim qatnashgani uning ko'lami va qamrovi haqida aytib turibdi.

Yirik tadbir doirasida “Sharq xalqlari musiqa madaniyati: globallasuv jarayonlarida ijodiy integratsiya tamoyillari” xalqaro ilmiy-anjuman o'tkazilib, unda 32 davlatdan 40 ga yaqin musiqashunos, folklorshunos, xalqaro ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy-ijodiy markazlar rahbarlari ishtirok etgani esa

SHAFFOF MEHRNING MUSAFFO BULOQLARI

Boshlanishi 1-betda



Abdusaid KUCHIMOV, senator

Eski arqon kabi chuvalanib yotgan bir-biridan murakkab va besanoq bunday tugunlarni yechmay turib maqsadga erishish qiyin. Vaqt tez, zamon shiddatli. Har nafas, har kun g'animat. Har nafas, har kundan bir emas, ikki emas, besh-o'n karra samarali foydalanish, natijaga erishish lozim. Kun talabi shunday, hayot talabi shunday.

Prezident xonada o'tirmadi, boshqa vaziru vuzarolarni ham kabinetdan chiqib, xalq ichiga kirishga chorladi. Joylarda Prezident qabulxonalarini tashkil etildi. “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” singari tamomila yangi tizimlar paydo bo'ldi. Tadbirkorlik, bandlik, kambag'allikdan chiqarishga katta mablag' ajratildi. Yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat va sadoqat, tinch va osoyishta hayot qadriga yetish hamda shukronalik tuyg'ularini chuqur singdirish maqsadida nuroniylar, imom-xatiblar, mahalla faollaridan iborat oqsoqollar kengashi va ota-onalar guruhlari tuzildi. Joylarda, mahallalarda ko'cha xizmatlari ko'paytirildi. Odamlar tomorqada, xonadonida ishlab, daromad topishni o'rgandi. Qaddi tik, bilagi baqovvat yigitlarga getkarlab yer berildi.

Singapur, BAA, Xitoy kabi mamlakatlar bundan 50-60 yil avval aynan shunday yo'l tutgan edi. Yer va mulkka egalik huquqi berilishi odamlarga kuch berdi, ertangi kunga ishonch bag'ishladi. O'zbekiston tashabbuslar, yangiliklar maydoniga aylana boshladi. Bugun, oradan 6-7 yil o'tganidan so'ng, ochig'ini aytish kerakki, bunday harakatlar natija chiqishiga ishonagandan ko'ra ishonmagandan, shubhalanganlar ko'p edi o'sha vaqtlarda...

Donishmand Sharqda bunday hikmatli so'z bor: “Podsho odil bo'lsa, yurt o'zar”.

Ham odil, ham elsevar Karvonboshining mehri esa muzliklarni — tosh yuraklarni eritish, jamiyatni o'zgartirish, xalqni uyg'otish, to'qlantirish, ruhlantrish, izlashga, yaratishga ilhomlantirsa olishi mumkinligi juda qisqa muddat — bor-yo'g'i 6-7 yilda o'z isbotini topdi.

Ijtimoiy daftarlarni tufayli ming-minglab ayolu erkak ishli, uyli-joyli bo'ldi, xotirjam bo'ldi. Chekka o'lkalarga sargardon, xo'rnanib yurgan yigit-qizlar oila bag'riga, ota-ona quchog'iga qayta boshladi. Kechagina mensimay yurganlar endi mamlakatimizdagi o'zgarishlardan hayratga tushib turibdi. Axir 2020-yilda 7,5 million yoki 23 foiz aholining daromadida kambag'allik darajasidan ham past bo'lgan holda, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 11 foizga tushishi yoki o'tgan uch yilda 3,5 million odamning kambag'allikdan qutulishi kimni hayratlantirmaydi deysiz! Shunga munosib ijtimoiy himoya qamrovi 4,5 karra kengaytirilib, bir yilning o'zida 12,3 trillion so'mga yetdi. Pensiya va nafaqalar miqdori ham 1,5 baravar ko'paydi.

Endi bir yil ichida amalga oshirilgan mana bu raqamlarga e'tibor beraylik: mahallada kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlik loyihalariga 35 trillion so'm arzon kredit, 7 trillion so'm subsidiya berildi. Mahallalarni obod qilish, bog'cha, maktab, tibbiyot, yo'l, suv va elektr infratuzilmasi uchun 120 trillion so'm ajratildi. 260 ming gektar yer 800 ming aholiga dehqonchilik qilib, daromad topish uchun tarqatildi.

Natijada 2020-yildan buyon 3 milliondan 5 million so'mgacha oylik oladigan ishchilar 2 barobar, 5 milliondan 7 million so'mgacha oylik oluvchilar esa 3 barobar ko'paydi. Bir yil ichida 3 million 300 ming aholi doimiy daromadga ega bo'ldi. Kambag'allar soni har yili 3 foizdan qisqarib, rasman band bo'lganlar soni ilk bor 10 million 500 ming nafarga yetdi.

“Inson — jamiyat — davlat” tamoyili asosida “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi qabul qilindi va unga ko'ra, 2025-yilda 1 million aholini kambag'allikdan chiqarish va kambag'allik darajasini sezilarli tushirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangani esa kishini yanada quvontiradi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatimiz YIM hajmini 160 milliard

turizm sanoatining global darajada yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lgan qimmatli hujjat deya baholadi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 9-avgust kuni bo'lib o'tgan Maslahat uchrashuvida Markaziy Osiyoni barqaror rivojlantirish dasturi o'rtaga tashlandi. Trans chegaraviy daryolarning suv resurslaridan oqilona foydalanishning mintaqaviy strategiyasini ishlab chiqish va qabul qilish taklifi bildirildi. Mazkur g'oyalarning muallifi ham O'zbekiston edi, O'zbekiston Prezidentining nafaqat O'zbekiston, balki dunyo ahliga bo'lgan beadoq mehru muhabbati edi.

Musaffo buloqlardan suv ichgan chinorlar azamat qoyalardak baquvvat bo'ladi. Mehr bulog'idan suv ichgan qalblar esa azim daryolar singari quvonch tuyg'ulariga to'lib-toshadi, lojuvard tovlanadi.

Quvonch bilan aytish joizki, Osiyoning Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan kabi mamlakatlarida bo'lganidek, ijtimoiy adolat modellari O'zbekistonda ham davlat siyosatiga aylandi.

Bu tamoyil O'zbekiston Konstitutsiyasining 14-moddasida alohida belgilab qo'yilgan: “Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi”.

Lekin har qanday g'oya izchillik bilan hayotga tabiiq etilmasa, u faqat jizabali shior sifatida qolib ketaverishi mumkin. Ming qatla shukrlar bo'lsinki, Prezidentimiz muttasil dunyoga keldi. Jahonning eng nufuzli



anjumanlari, davlat rahbarlari uchrashuvlari, dunyo muammolariga doir xalqaro majlisu mashvaratlar o'tkaziladigan bo'ldi qadimiy Samarqand-u Toshkent, Buxoro-yu Xivada. O'zbekiston darvozalari dunyoga, dunyo darvozalari O'zbekistonga keng ochildi. Do'stlarimiz, hamkorlarimiz safi kengayaverdi.

Shu o'rinda ayrim fakt va voqealarni eslaylik. E'tibor bering, so'nggi 7 yilda O'zbekiston tashabbuslari asosida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 10 dan ziyod rezolyutsiya qabul qilindi. 26-fevral kuni BMTning Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida Bosh Assambleya tomonidan “2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” rezolyutsiyasining bir ovozdan ma'qullangani shularning biridir. O'zbekiston ilgari surgan ushbu hujjatga 80 dan ortiq a'zo mamlakat hammualliflik qildi.

Prezidentimizning Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh Assambleyasining 2023-yil oktabrda Samarqandda bo'lgan sessiyasida turizm sohasining yangi muammolar va zamonaviy xatarlar oldida barqarorligi hamda moslashuvchanligi borasida bildirgan fikrlariga asoslangan mazkur hujjatda turli sivilizatsiyalar davrida yaratilgan madaniy merosni asrash, tinchlik va bag'rikenglikni mustahkamlash, xalqlarning qadriyatlarini hurmat qilish singari jahonshumul fikrlar bayon qilindi. Ekspertlar rezolyutsiyani

bosh-qosh bo'lib turibdi. Ijtimoiy yordamga ehtiyojmand insonlarga ko'rsatilayotgan behad izzat-ikromni har kuni ko'rib, his etib turibmiz.

Shu yilning 13-dekabrda ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasini yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari yana bir karra mazkur masalaga yanada chuquroq yondashish, yordamga muhtoj vatandoshlarimizga har doimgidan-da ko'proq mehribonlik qilish lozimligini ta'kidladi. Ijtimoiy davlat tamoyili muntazam ravishda hayotimizda o'z ro'yobini topayotgani uchun, albatta, mehr va ko'mak tizimi quvonchli natijalar bermog'ida.

Fikrimiz quuruq bo'lmasligi uchun ayrim raqamlarga murojaat qilamiz. 2024-yilda yurtimizning barcha hududlarida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ochildi va mahallalarda 102 ta ijtimoiy xizmat yo'lga qo'yildi. Ijtimoiy xodimlar uyuma-uy yurib, yana 95 ming muhtoj odamga ijtimoiy yordam ko'rsatdi, nogironligi bor 26 ming fuqaroga protezlar berildi, 4 mingga yaqin yolg'iz keksaga uyda parvarishlash xizmati tashkil etildi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Akmal BURXONOV,
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori

Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan islohotlar qat'iy va davomiy, oqilona va puxta bo'lsa, samarasi uzoq kuttirmaydi. Qanchalik murakkab bo'lmasin, O'zbekiston bo'yoladi dadi va eng muhimi, e'tirofga arziqlik natijalar bilan bosib o'tmoqda. Yildan yilga korrupsiya, poraxo'rlik ortidan to'planib qolgan muammolar asta-sekin yechim topmoqda, xato va kamchiliklar ochiq-oshkora tan olinib, ularni bartaraf etish uchun zarur imkoniyatlar ishga solinmoqda.

Uzoqqa bormaylik, bundan ikki yil oldin ham biz xalqimizga, xalqaro maydonlarda, katta minbarlarda, asosan, korrupsiyani yo'q qilish uchun qilmoqchi bo'lgan ishlarimiz, rejalarimiz haqida gapirish bilan cheklanar edik, bugun esa ularning natijalari, galdagi maqsadlarimiz haqida jur'at va ishonch bilan bemalol fikr aytay olamiz. Korrupsiyaning oqibatlarini bilan emas, uning oldini olishga qaratilgan preventiv islohotlar o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirib kelinayotgani bizga ana shunday imkon bermoqda.

2017-yildan hozirga qadar korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid 25 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatini har ikki yilga mo'ljallangan davlat dasturlarini qabul qilish orqali amalga oshirish mexanizmi joriy etildi. O'tgan sakkiz yilda Prezident farmonlari bilan 4 ta davlat dasturi tasdiqlandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi ilk bor yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aks ettirildi. Oliy Majlis palatalarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini usidan nazorat kuchaytirildi. Har yili Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza parlamentga taqdim etilishi bunga yorqin misol. Bu yil uchinchi Milliy ma'ruza deputat va senatorlarimiz bilan muhokama qilib, keng jamoatchilik e'tiboriga havola etdik.

Korrupsiyaga qarshi davlat siyosati va islohotlar xalqaro tashkilotlar tomonidan ijobiy baholanayotganini ham alohida ta'kidlashni istardim. Jumladan, IHTT Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakatlar rejasi doirasida o'tkaziladigan 5-bosqich monitoring yakunlari bo'yicha O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi siyosati 83,6 ball bilan "juda yuqori" darajada baholandi.

maktabgacha va maktab ta'limi sohalarida (44 ta) hisobiga to'g'ri keladi.

Ayni paytda davlat xaridlarini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda korrupsiya xavfini aniqlashning elektron tizimini ishlab chiqish ustida ishlayapmiz va bu kelgusida sohada qonun buzilishi holatlarining oldini olish, aniqlash va bartaraf etishda manfaatli bo'ladi deb o'ylayman.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy va samarali metodlaridan biri sifatida 117 ta davlat organi va tashkiloti, shu jumladan, banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilgani ijobiy natijalarga asos bo'lmoqda. Masalan,

ko'rish tizimi joriy etilgan. Bu bo'yicha o'tgan davrda qonunbuzilish holatlari yuzasidan vazirlik va idoralarga 122 ta taqdimnoma kiritilib, 16 nafar shaxsga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanildi va 4 xodim egallab turgan lavozimidan ozod etildi, 7 nafar mansabdor shaxsga nisbatan ma'muriy ish qo'zg'atildi.

Ochiq ma'lumotlarni o'z vaqtida shakllantirish va uni belgilangan resurslarda e'lon qilishni ta'minlash maqsadida ichki idoraviy hujjatlar namunalari ishlab chiqdik

KUCHLI IRODA, MUSTAHKAM ISHONCH VA QAT'IY INTILISH BILANGINA KORRUPSIYANI YENGAMIZ

VIRTUAL AKADEMIYADA O'QITISH DAVLAT XIZMACHILARI UCHUN MAJBURIY BO'LIB, ULARNING MALAKASI HAR UCH YILDA KAMIDA BIR MARTA OSHIRIB BORILADI, BIR YILDA O'RTACHA 140 MINGDAN ORTIQ DAVLAT XIZMACHISI O'QITILADI.

hamda davlat tashkilotlariga metodik yordam ko'rsatish va tushuntirish ishlarini ham muntazam amalga oshirib kelmoqdamiz. "E-learning" elektron platformasi shu maqsadda ishga tushirilgan, hozir platforma orqali respublika va mahalliy darajadagi 117 ta davlat organining 400 nafarga yaqin xodimi malaka oshirdi.

Bu kabi sa'y-harakatlarimiz sezilarli natija bermoqda: 2023-yil uchun e'lon qilingan Ochiqlik indeksi natijalariga ko'ra, faoliyat samaradorligi "yashil" toifadagi davlat idoralari soni o'tgan yildagiga nisbatan sezilarli ortdi. 2022-yil yakuni bo'yicha "qizil" toifaga kiritilgan qator davlat idoralarda keskin ijobiy o'sish kuzatildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat organlari faoliyatini reyting asosida baholash tizimi joriy etilgani ham korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida belgilangan vazifalarni samarali monitoring qilish bilan birga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, sohada sog'lom raqobat muhitini kuchaytirish hamda tashkilot rahbarlarining mas'uliyatini yanada oshirishga katta hissa qo'shmoqda.

Keng jamoatchilik, jurnalist va blogerlar tomonidan ko'p muhokama qilinadigan va e'tirozlarga sabab bo'ladigan davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha tobora ijobiy samaradorlikka erishilmoqda. 2023-yil va 2024-yilning 10 oyida o'tkazilgan o'rganishlar natijasida vazirlik va idoralarga 417 ta (443 milliard so'mlik) taqdimnoma kiritilgan, shundan 356 tasi qanoatlantirilgan. Xususan, taqdimnomalar natijasida buyurtmachilar tomonidan 325 ta holatda 393,4 milliard so'mlik davlat xaridlarida yo'l

o'tgan davrda nazorat tuzilmalari tomonidan o'tkazilgan 4,5 mingga yaqin nazorat tadbirlari 342,6 milliard so'm mablag'ni talon-taroj qilish va 928,9 milliard so'mlik moliyaviy qonun buzilishi holatlari aniqlandi, shuningdek, 953,4 milliard so'm mablag' noqonuniy sarf etilishining oldi olinib, 372 milliard so'mlik noqonuniy xarajatning davlat idoralari hisobiga undirilishi ta'minlandi.

Agentlik tomonidan xalqaro standartlar asosida ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini tartibga soluvchi 10 ta idoraviy hujjat, 7 ta darslik va metodologik qo'llanma chop etildi, har chorakda ichki nazorat tuzilmalari xodimlari uchun o'quv seminarlari tashkil etish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda oldimizda nazorat tuzilmalari faoliyatining huquqiy asoslarini kuchaytirish vazifasi turibdi. Shu bois, ularning mustaqilligini ta'minlash, huquqiy maqomi, vazifa va funksiyalari, vakolat va majburiyatlarini, shtatlar soni, tuzilma xodimlarining majburiy tartibda malakasini oshirish, attestatsiyadan o'tkazish tartibiga oid muhim masalalarni qamrab olgan normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqildi. Ammo baribir natijadorlikni oshirishdagi asosiy masala rahbarlarning shaxsiy namunasi, tashabbuskorligi va mas'uliyatligi bilan bog'liq bo'lib qolaveradi.

Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tizimi orqali ulardagi korrupsiya

“Endi har chorakda agentlik va Adliya vazirligi tomonidan davlat organlari kesimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holatlar tahlil qilinadi hamda bunday holatlar ko'paygan davlat organlariga taqdimnomalar kiritib boriladi. Har yarim yilda respublika idoralararo komissiyasi yig'ilishlarida manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, bartaraf etish, bunday holatlarning oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlarining birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilinib, hisobdorlik ta'minlanadi.”



hamkorligida davlat organlarida korrupsiyaga qarshi ekspertizani samarali tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'mak ko'rsatib kelinmoqda. Misol uchun, davlat organlarida bunga mas'ul xodimlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv seminarlari tashkil etilib, davlat organlari yuridik xizmat xodimlarining malakasi oshirilmoqda.

Mamlakatimizda aholi va davlat xizmatchilarida korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabati shakllantirish, ularga "halollik vakinasini" singdirish hamda korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini oshirishga bugun katta ehtiyoj va zarurat bor. Chunki shu paytga qadar aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimini uzluksiz oshirib borish, jumladan, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yilmagan. Ana shu talab va ehtiyoj zaruratidan kelib chiqqan holda 2025-yil 1-yanvardan "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" ishga tushirilmoqda. Ya'ni bundan buyon nafaqat davlat xizmatchilari, balki aholining barcha qatlamlari uchun ularning yoshi, malakasi, darajasi, lavozimiga mos ravishda o'qitish tizimi yaratiladi. Masalan, mazkur platforma orqali har qanday fuqaro mutlaqo bepul asosda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bazaviy bilimini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari, ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o'quvchilari va talabalari va tabiiyki, davlat xizmatchilari uchun alohida-alohida maxsus kurslar ham tashkil etiladi.

Virtual akademiyada o'qitish davlat xizmatchilari uchun majburiy bo'lib, ularning malakasi har uch yilda kamida bir marta oshirib boriladi, bir yilda o'rta 140 mingdan ortiq davlat xizmatchisi o'qitiladi.

Umuman olganda, endi O'zbekistonda aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini uzluksiz oshirib borish tizimi joriy etiladi. Bu esa jamiyatda korrupsiya ilovatiga nisbatan muhosasizlikni kuchaytirish, aksilkorrupsiya islohotlari ta'sirchanligi va samaradorligini oshirishning muhim sharti va kafolati ekanini bilan yanada ahamiyatli.

Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish bo'yicha yagona amaliyot mavjud emasligi og'riqli nuqtalarimizdan biri edi. Misol uchun, agentligimiz tomonidan o'tkazilgan o'rganishlarda davlat xizmatida minglab manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yganlik holatlari aniqlansa-da, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishning huquqiy asosi yoki unga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlik belgilanmagan sababli ularni bartaraf etish qiyinchilik tug'dirardi.

Shu yil 5-dekabr kucha kirdigan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun bilan manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi, davlat xizmatchilarining majburiyatlarini hamda

uni tartibga solish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Qonunning qo'llanilish doirasi aniqlashtirildi, ya'ni davlat fuqarolik xizmatining siyosiy guruhiga kiruvchi lavozimlardan tashqari barcha davlat organlari, davlat muassasalari va unitar korxonalar, davlat maqsadli jamg'armalari hamda ustav fondida davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, harbiy lavozimlar uchun qonun talabi birdek amal qiladi.

Yaqinda Bosh vazir raisligida "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tomonidan qonun tatbiq etiladigan davlat organlari va tashkilotlari ro'yxati tasdiqlandi. Ro'yxatga respublika darajasidagi 27 ta davlat organi va tashkiloti, 71 ta respublika ijro etuvchi hokimiyat organi, 10 ta davlat maqsadli jamg'armasi, viloyatlar va tuman-shahar hokimliklari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan 49 ta xo'jalik jamiyati, unitar korxonalar kiritildi.

Qonun kuchga kurgunga qadar unda belgilangan talab va mexanizmlarning amaliyotda ishlashi bilan bog'liq masalalar davlat organlari va tashkilotlarida ishchi guruhlarini tuzgan holda o'rganildi, aniqlangan holatlar bartaraf etildi. O'rganishlarda 75 xodimning yaqin qarindoshlari bevosita bo'yusnuvda yoki nazorat ostida ishlamayotgan, 1488 nafar xodimning davlat xizmati bilan bir vaqtda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgani bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha davlat idoralarga 33 ta taqdimnoma kiritildi.

Agentlik taqdimnomalari asosida mazkur davlat xaridlari bo'yicha rasmiylashtirilgan bayonnoma va shartnomalar bekor qilindi. Ushbu yo'nalishda qilinayotgan eng muhim ishlardan biri manfaatlar to'qnashuvi yuzasidan zarur o'qitish va tushuntirish ishlarini amalga oshirilganidir. Jumladan, agentlik va Adliya vazirligi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi holatlari, ularni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqilib, davlat xizmatchilariga yetkazildi.

Adliya vazirligining maxsus test adliya.uz platformasi orqali davlat idora va tashkilotlarining 95 mingdan ortiq xodimi test sinovlarini topshirdi. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi va Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan 67 ta tashkilotning 31 mingga yaqin xodimi o'qitildi.

Endi har chorakda agentlik va Adliya vazirligi tomonidan davlat organlari kesimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holatlar tahlil qilinadi hamda bunday holatlar ko'paygan davlat organlariga taqdimnomalar kiritib boriladi. Har yarim yilda respublika idoralararo komissiyasi yig'ilishlarida manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, bartaraf etish, bunday holatlarning oldini

olish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlarining birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilinib, hisobdorlik ta'minlanadi.

Aksilkorrupsiya islohotlari samaradorligi va ta'sirchanligini oshirishda ushbu yo'nalishdagi xalqaro hamkorlik, muammolarga birgalikda yechim izlash biz uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayni vaqtga qadar 10 dan ortiq xalqaro tashkilot (BMT, IHTT, YXHT, JB va boshqalar) hamda 20 dan ortiq xorijiy davlatning (AQSH, Koreya Respublikasi, Fransiya, Germaniya, Singapur, Malayziya, Xitoy, Qozog'iston va boshqalar) korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul idoralari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydik. Xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari bilan 19 ta hamkorlik to'g'risida bitim va memorandum imzolandi.

Xalqaro doiradagi hamkorlarimiz ko'magida bu yil ilk marotaba korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida global mediaforumni o'tkazdik. Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabati shakllantirish maqsadida korrupsiyaga qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturini O'zbekistonda keng joriy etish bo'yicha ishlayapmiz. Ushbu dastur barcha bosqichlardagi ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi muhosasiz munosabati shakllantirish, ta'lim va ta'dqiqot yo'nalishlarida halollik darslarini, halollik to'garaklarini tashkil etish, tanlov, fleishmoblar o'tkazish, ilmiy ta'dqiqotlarni muvofiqlashtirish hamda yaratilgan kontentlarni tarjima qilishni nazarda tutadi.

Shuningdek, bu yil Yevropa Ittifoqi, BMT Taraqqiyot dasturi va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) qonun ijrosidagi qiymati 7 million dollarlik "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi milliy ekotimizni mustahkamlash" va "O'zbekistonda boshqaruvni takomillashtirish: Inklyuziv ravishda korrupsiyaning oldini olish" loyihalarini ishga tushirdi. Mazkur loyihalar doirasida O'zbekiston aksilkorrupsiya siyosatiga oid hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, halollikni baholash tashabbusini joriy etish, korrupsiyaga oid islohotlarning barcha hududlarga yetib borishini ta'minlash hamda bu jarayonni samarali muvofiqlashtirish borasida ko'plab ishlarni rejalashtirganimiz. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga raqamli texnologiya va sun'iy intellekti joriy etish, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish hamda ularning salohiyatini oshirish, sohada mandata ega bo'lgan donorlar bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish tizimini joriy etish kabi ustuvor vazifalar loyiha dasturlarida aks etgan.

Sa'y-harakatlarimiz korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro reyting va indekslarda o'z natijasini ko'rsatmoqda. 2023-yil natijalariga ko'ra, Transparency International tashkilotining Korrupsiyani idrok etish indeksida O'zbekiston 180 davlat orasida 121-o'rinni egalladi. 2021-yildagiga nisbatan mamlakatimiz o'rni 19 pog'onaga yaxshilandi. Bu bilan yurtimiz oxirgi 7 yil davomida Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasining aksilkorrupsiya islohotlarini tizimli ravishda amalga oshirayotgan va o'sish sur'atini qayd etayotgan davlatlar qatoridan joy oldi.

Korrupsiyaga qarshi davlat siyosati va islohotlar xalqaro tashkilotlar tomonidan ijobiy baholanayotganini ham alohida ta'kidlashni istardim. Jumladan, IHTT Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakatlar rejasi doirasida o'tkaziladigan 5-bosqich monitoring yakunlari bo'yicha O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi siyosati 83,6 ball bilan "juda yuqori" darajada baholandi.

Shu kabi yuqori natijalar, izchil islohotlarga qaramay, korrupsiya bilan bog'liq muammolar davlat va jamiyatni, xalqimizni hali-hanuz o'ylantirayotgani bor gap. Ayrim mahalliy hokimiyat organlari, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalaridagi korrupsiyaviy holatlar haqiqatan xavotirli, albatta. Ammo korrupsiyaga qarshi kurashishga siyosiy iroda bor ekan, unga qarshi muhosasiz kurash ham qat'iy, muttasil davom etadi. Eng muhimi, bugungi islohotlarning kelgusidagi samarasiga istak va ishonchni mustahkamlab, ushbu illatning har qanday shakliga nisbatan sidqididan kurashishga mas'ullik va daxldorlikni hech birimiz unutmasligimiz kerak.

Adliya vazirligining maxsus test.adliya.uz platformasi orqali davlat idora va tashkilotlarining 95 mingdan ortiq xodimi test sinovlarini topshirdi. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi va Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan 67 ta tashkilotning 31 mingga yaqin xodimi o'qitildi.

Mamlakatimiz aksilkorrupsiya siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri, shubhasiz, ochiqlikni ta'minlashdir. O'tgan davr maydonida bu boradagi qonun hujjatlarini ilg'or xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirildi. Ushbu yillarda qabul qilingan 180 ta normativ-huquqiy hujjatda ochiqlik va shaffoflik mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan 328 ta vazifa va topshiriq belgilab berildi. Shundan 187 ta topshiriq asosida amaldagi mexanizmlar ochiqlik prinsiplari asosida takomillashtirilib, 141 ta yangi amaliyot yo'lga qo'yildi.

Ochiq hukumat, kuchaytirilgan oshkorlik, fuqarolar va hukumat o'rtasidagi hamkorlik tobora rivojlanib borayotgani rahbar hamda mutasaddilarni, xalqimizni "halollik vakinasini" bilan emlanishga majbur qilmoqda, desak xato bo'lmaydi. Jumladan, davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligi darajasini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etilgani, davlat idoralari tomonidan ochiq e'lon qilinishi majburiy bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik 40 turdagi ma'lumotlar ro'yxati tasdiqlangani, ularni e'lon qilish moddalarini, elektron manzili va mas'ul idoralari belgilangani davlat organlarining ochiqlik darajasini jamoatchilik uchun yaqqol ko'rsatish imkonini bermoqda.

Agentligimiz tomonidan esa ochiqlik ta'minlanishini monitoring qilish va qonun buzilishiga yo'l qo'yan shaxslarga qat'iy chora



qo'yilgan qonun buzilishlari bartaraf etilib, davlat xaridlari bekor qilingan.

Aniqlangan qonun buzilishi holatlari yuzasidan Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasiga 61 ta va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga 355 ta material yuborildi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalari bilan 164 ta ma'muriy, Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan 8 ta jinoyat ishi qo'zg'atilib, 89 shaxsga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanildi.

O'rganishlarimizga ko'ra, davlat xaridlari sohasida eng ko'p qonun buzilishi holatlari sog'liqni saqlash (91 ta), transport (62 ta) va

omillarini barvaqt aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko'rilayotgani ham aksilkorrupsiya islohotlari samarasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi 3 yilda 950 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat loyihasida 1,5 mingdan ziyod korrupsiya omili aniqlanib, bartaraf etildi.

Jumladan, agentlik tomonidan joriy yilning o'tgan davrida 186 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilib, 70 foizida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi 437 ta omil aniqlandi hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rdi. Agentlik va Adliya vazirligi



